

BOSHLANG'ICH SINIF MUSIQIY FAOLIYAT TURLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNI MUSIQIY QOBILIYATINI SHAKILLANTIRISH

Yaqubbayeva Adolat Rajapboy qizi
Xorazm viloyati Urganch tumanidagi 7 sonli maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ro'zimova Donaxon
musiqqa fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf musiqqa madaniyati darslarida musiqiy faoliyat turlari asosida o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini shakillantirishning nazariy asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, musiqiy faoliyat turlari haqida batafsil ma'lumotlar bayon etilgan. Hamda "Musiqqa madaniyati" darslarida "Musiqqa faoliyat turlari"ning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: musiqqa madaniyati, boshlang'ich ta'li, musiqiy qobiliyat, ko'nikma, musiqiy faoliyat turlari.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan tub ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar musiqqa ta'limini tizimida ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shaxsni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash muammosini hal qilish bugungi kun davr talabidir. Ayni vaqtda yoshlarni milliy musiqiy merosimizga hurmat, vatanga muxabbat ruxida tarbiyalash o'qituvchi tarbiyachilar olidida turgan, kichiktirib bo'lmaydigan vazifalardir. Musiqqa ta'limida ijodiy faoliyat turlari va ularni o'rgatish uslublari mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimizda quyidagi xulosalarga keldik.

Musiqqa ta'limini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchisi, tayyorlov bosqichi. Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad - O'quvchining musiqqa uquvini o'stirishdir. Shu vaqt mobaynida O'quvchi musiqqa tovushlarining balandpastligi va cho'zimi kabi o'ziga xos xususiyatlarni ajrata bilishga o'rganishlari va nota yozuvini o'rganishga tayyorlanishlari kerak. Ikkinchi bosqichda nota savodi, ya'ni bevosita musiqqa tovushlarining grafik usulda ifodalanishi - nota yozuvini o'rganishga kirishiladi. Musiqqa mashg'ulotlari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi.



O'quvchi yoshiga mos musiqa asarlari kichkintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitadi.

Bog'cha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Ashula aytish usuli, janrdagi musiqa asarlari, xususan, syujetli cholg'u pyesalarini tinglash, musiqaviy o'yinlar bilan shug'ullanish va raqsga tushish jarayonida musiqa mashg'ulotlari ko'pincha badiiy so'z bilan belgilanadi. Bola badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi va chuqur idrok qila olishi uchun tasviriy san'at asarlaridan unumli foydalaniladi. Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'ulotlari kichkintoylarda badiiy estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, ijodiy fikri va nutqini o'stiradi. Bundan tashqari, musiqaviy o'yin va postanovkalar, raqslar O'quvchida ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanlik malakalarini rivojlantiradi hamda qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Musiqa uquv qobiliyati asosan quyidagi musiqa uquv turlaridan iborat bo'ladi: musiqaviy uquvi, musiqaviy tovushlarning baland-pastligini his etish qobiliyati, tembr uquvi (musiqa tovushlarining birbiridan farq qiladigan, o'ziga xos jihatlarini ajrata bilish qobilyati), ritm tuyg'usi va musiqa xotirasi. Musiqa tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- ✦ O'quvchining musiqaga qiziqishini oshirish va uni sevisga o'rgatish.
- ✦ Musiqa asarlari bilan tanishtirish jarayonida O'quvchida emotsional histuyg'ularini hosil etish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitib borish.
- ✦ O'quvchini oddiy musiqa tushunchalari bilan tanishtirish, musiqa tinglash, ashula aytish, musiqa bilan harakat qilish, raqsga tushish va O'quvchining oddiy musiqa asboblarida kuy chalish ko'nikmalarini shakllantirish va ijodiy qobilyatini o'stirib borish.
- ✦ O'quvchi ovozini asrab tarbiyalash, ashula aytishning dastlabki ko'nikmalarini hosil etish, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish.
- ✦ Musiqa asaralaridan ta'sirlanish, shu asosda O'quvchida musiqaviy did va badiiy muhokama yuritish malakalarini rivojlantirish.
- ✦ Turli musiqa mashg'ulotlari jarayonida improvizatsiya qilish musiqadagi badiiy obrazni o'yin va xor ovozlar vositasida ifoda etish, ma'lum musiqaviy mavzuga yangi o'yin o'ylab topish.



✦ Musiqaviy tarbiya mashg'ulotlarini bog'cha hayoti bilan bog'lash, bog'chada o'tkaziladigan turli mashg'ulotlarda va marosimlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlardan keng foydalanish, turli ertaliklar, konsertlar uyishtirish vositasida musiqa kundalik hayotimizning ajralmas yo'ldoshi ekanligi haqida O'quvchida tushuncha hosil qilish.

Turli guruhlarda musiqa tinglash faoliyati

Musiqani tinglay bilish va undan estetik zavqlana olish ham katta san'at hisoblanadi. Kishida musiqa tinglash madaniyati yoshligidan rivojlana boshlaydi.

Bog'chada amalga oshiriladigan musiqa tinglash esa uning poydevoridir. Zotan bola musiqa mashg'ulotlarining barcha elementlari jarayonida ham musiqa tinglab, uni idrok etadi. Ammo mashg'ulotning musiqa tinglash qismi oldida o'ziga xos jiddiy vazifalar turadi. Avvalo shuni eslatish lozimki, kishining kuylash imkoniyatidan ko'ra tinglash imkoniyati ancha keng bo'ladi. Masalan: orkestr, xor, yakka cholg'u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab, idrok etish mumkin, xolos. Shuning uchun olimlar musiqaviy tarbiya jarayonida musiqa tinglashga alohida e'tibor qaratishadi. Chunki kishi musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida musiqa tinglash, malaka, ko'nikmalari katta rol o'ynaydi. Musiqa tinglashda O'quvchining badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi. Mashg'ulotning musiqa tinglash qismi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- 1) O'quvchini o'z idrokiga mos xalq klassik va zamonaviy musiqa namunalari bilan tanishtirib borish;
 - 2) O'quvchining musiqani idrok qilish qobiliyatlarini rivojlantirib borish;
- Musiqa haqida boshlang'ich ma'lumotlar berishni o'rgatadigan asarlar nomlarini eslashga, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqiga borishga hamda tinglagan asarlariga ma'lum miqdorda badiiy baho bera olishga o'rgatish. Kichik guruh O'quvchining diqqati uncha barqaror bo'lmaganligi tufayli ular yorqin yangraydigan kichikkichik musiqa asarlarini idrok etishga qobil bo'ladilar. Ular ayniqsa, kichik qo'shiqlarni yaxshi idrok etadilar. Chunki, so'z va ohang birligi musiqa mazmunini oson idrok etishga yordam beradi. Xususan, tarbiyachi ashula aytganda uning tanish ovozi va ifodalash intonatsiya mimikasi va ishoralari O'quvchini maftun etadi. Shu vaqtda O'quvchida hosil bo'ladigan zavqlanish, ajablanish, quvonish holatlarini kuzarish mumkin. O'quvchilarning musiqa madaniyati rivojlanishida kelajakda asosiy rol o'ynaydigan uch faktor amalga



oshadi. 1. Musiqaga qiziqish musiqa asarlarini ishtiyoq bilan tinglash va ularni eslash, olingan taassurotlarni o'ylash.

2. Musiqa tinglashga turg'un diqqat-e'tiborni va tinglash madaniyati boshlang'ich elementlarining shakllanishi.

3. Musiqiy didining shakllanishi, musiqa asarlariga badiiy baho bera olish. Turli guruhlarda musiqa tinglashning nazariy uslubiy vazifalari:

1. Musiqa tinglash orqali O'quvchida his-tuyg'ularini rivojlantirish.

2. Boshlang'ich musiqa tinglash tushunchalarini rivojlantirish.

Boshlang'ich sinflarda esa dars faoliyatlari 5 ta bo'ladi:

1. Xor bo'lib kuylash.

2. Musiqa savodi

3. Musiqa tinglash

4. Musiqaga mos harakatlarni bajarish

5. O'quvchi cholg'u asboblarda jo'r bo'lishdan iborat bo'ladi.

Xorda kuylash - musiqaviy tarbiyaning jamoa faoliyati sifatida o'qituvchining bevosita ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Xorda kuylash murakkab psixologik va fiziologik jarayondir. Bunda bosh miyadagi nerv xujayralari ham faol ishga tushadi. U qo'shiq kuylash davomida o'quvchilarda ijobiy xis tuyg'ularning faolligini ta'minlaydi hamda o'quvchilarning samarali ishlashiga sharoit yaratadi.

Musiqa savodi - ma'lumki, umumiy ta'lim maktabi musiqa darslari tarkibidagi musiqa savodi o'zining musiqa haqidagi kompleks bilimlar doirasidan iboratligi bilan farq qiladi.

Ashula aytish jarayonida o'rganiladigan nota savodi elementlari bilan birga musiqa savodi turkumiga musiqa janrlari, ularning shakl va tuzilishlari, ifoda vositalari, xalq va kompozitorlik musiqasining mohiyati haqidagi tushunchalar, ijrochilik turlari, cholg'u asboblari va ularning tovush tembrlari va boshqalar kiradi. Musiqa ta'limi va tarbiyasi jarayonida mazkur bilimlar majmuasi asosida o'quvchilarning musiqa savodxonligi tarkib topishi lozim. Bu musiqa madaniyatining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Musiqa tinglash - o'quvchilarning musiqiy taasurotini boyitish, tasavvurini kengaytirish, tinglash qobiliyatini o'stirish va musiqiy didini tarbiyalashda darsning musiqa tinglash faoliyati katta rol o'ynaydi. Darsning bu faoliyat turida o'quvchilar musiqa o'qituvchisi ijrosida, elektrofon, magnitofon yordamida eng nodir musiqa asarlarining na'munali ijrosini tinglaydilar. Xor, orkestr, ansambl va yakkanavozlar



ijrosida turli janrdagi klassik asarlar bilan tanishadilar, san'atning katta dargoxiga ilk bor qadam tashlaydilar.

Musiqqa tarbiyasi o'quvchiga xos musiqqa tinglash, qo'shiqlarni yodlash, musiqqa bilan turli harakatlarni bajarish, cholg'u asboblarini chalish, musiqqa va musiqachilar to'g'risidagi kitoblarni o'qish, teatr, konsertlarga borish singari musiqaviy faoliyatning turli xil turlarini o'rganishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining quvnoq musiqalarini zavq-shavq bilan tinglashi, musiqqa asboblarining qiziqib chalishi qo'shiq va raqslarini berilib ijro etishi, ularda musiqqa qiziqishini tarbiyalash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning zaminidir.

Musiqani faol ravishda tinglash o'quvchida ijrochilik malakalarini shakllantiradi. Musiqqa tinglagandan keyingi fikr almashuvlar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchi O'quvchi o'rtasida bir-birini aniqlash ruhini va o'zaro ishonchini vujudga keltiradi, hamda mustahkamlaydi. Musiqqa o'qituvchisi umumiy ta'lim maktablarining har bir sinfida o'rgatish uchun qilinayotgan qo'shiq - ashula va materiallarini puxta o'ylab chiqishi kerak. Repertuarga kiritilayotgan qo'shiqlar g'oyaviy badiiy qiymatga qarab tanlanmoq'i, o'quvchi O'quvchiga tushunarli va mavzu jihatdan xilma-xil bo'lmog'i lozim. O'quvchini o'ziga qo'shiq aytirish, ularda musiqqa moyillikning tarkib topishi amaliy va ta'sirchan vositadir.

Musiqaning san'at sifatida tasvirlash qudratini, tabiat va hayot go'zalligini voqelik va xatti-harakatlardagi qaytarilmas, ko'z ilgamas qirralarini musiqiy ohangdagi rang-barang bo'yoqlarda idrok etadilar, chuqurroq xis etadilar. Kuylar o'quvchilarning xotirasida chuqur o'rnashib qolishi uchun bu kuylarning ohanglarini o'quvchilar bilan kuylab ko'rish tavsiya etiladi. Ayniqsa, asar musiqqa asbobi ijrosida tinglanib, so'ng kuylab ko'rish orqali qayta mustahkamlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktab musiqqa darsliklarida barcha musiqiy faoliyatlar uchun mo'ljallangan materiallar ma'lum izchillik asosida, mantiqiy tarzda joylashtirilgan bo'lib, ushbu materiallarni o'quvchilarga to'laqonli tarzda etkazish va ularda ushbu faoliyatlarga nisbatan qiziqishlarni shakllantirish uchun musiqqa o'qituvchisi oldida katta pedagogik vazifa ko'ndalang turadi. Bu vazifani to'la bajarish o'quvchilarning komil inson bo'lib shakllanishida muhim ahamiyatga ega.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismailov Tohir. “MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA
RUS
KOMPOZITORLARI IJODI ORQALI O’QUVCHILARNING ESTETIK DIDINI
RIVOJLANTIRISH” SCIENCE AND EDUCATION IN VOLUME #2 ISSUE #4,
APRIL 2021;
2. SHaripova G.. Musiqa va uni o’qitish metodikasi (metodik qo’lanma).
Toshkent - 2006.
3. Ismailov Tohir “CHARACTERISTICS OF KHOREZM DOSTON ART”
"Экономика и социум" №3(82) 2021
4. Панджиев К. Взаимодействие науки и искусства. Экономика и социум.
№1(56). 2019. 91-92 с.
5. Panjiyev Qurbonniyoz Berdiyevich. Uzbek Family Ceremony Music and Its
Description of Genre. International Journal of Trend in Scientific Research and
Development (IJTSRD)
6. Ismailov Tohir. “THE IMPORTANCE OF RUSSIAN CLASSICAL
COMPOSERS IN CLASSES OF MUSIC CULTURE” "Экономика и социум"
№1(80) 2021 www.iupr.ru.
7. Ismailov Tohir. “Musical currents and the formation of Russian classical
music”. “Вестник магистратуры” 2021. №5 (116);